e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper *https://doi.org/10.67227/162bgg36*

VIDEOMATNLAR ORQALI GIBRID TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING INGLIZ TILIDAGI DISKURSIV KOMPETENSIYASINI LINGVODIDAKTIK JIHATDAN TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Muminova Nasiba Solijon qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti, dotsent, (PhD).
e-mail: nasiba_9095@inbox.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0009-2347-9353

Annotatsiya.
Mazkur maqola gibrid ta'lim muhitida videomatnlar orqali talabalarning ingliz tilidagi diskursiv kompetensiyasini takomillashtirishning pedagogik va ilmiy-metodik zaruratlarini asoslashga bag'ishlangan. Unda ingliz tilini o'qitishda savol va topshiriqlarni ishlab chiqishning ilmiy-nazariy asoslari, darslik va o'quv rejalarning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda o'quv topshiriqlarini didaktik yondashuv asosida tavsiflash va vazifalariga ko'ra tasniflash masalalari yoritiladi. Shuningdek, ingliz tili ta'limi mazmunini takomillashtirishda o'quv topshiriqlari tizimini yaratish, ulardan samarali foydalanish va amaliyotga tatbiq etishning metodik jihatlari ko'rib chiqiladi. Gibrid ta'lim sharoitida videomatnlar, modulli ta'lim va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning diskursiv kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Integratsion-metodik va lingvodidaktik yondashuvlar asosida ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirish yo'llari tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: gibrid ta'lim, gibrid ta'lim muhiti, videomatnlar, ingliz tili, diskursiv kompetensiya, ingliz tili ta'limi, o'quv topshiriqlari, integratsion-metodik yondashuv, lingvodidaktika, didaktik talablar, pedagogik talablar, modulli ta'lim, innovatsion ta'lim texnologiyalari, metodik yondashuv.

МЕТОДИКА ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКОГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИСКУРСИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ ПОСРЕДСТВОМ ВИДЕОМАТЕРИАЛОВ В УСЛОВИЯХ ГИБРИДНОГО ОБУЧЕНИЯ

Муминова Насиба Солижон кизи
Ташкентский университет прикладных наук, доцент, (PhD).

Аннотация.
Статья посвящена обоснованию педагогической и научно-методической необходимости совершенствования дискурсивной компетенции студентов по английскому языку посредством видеоматериалов в условиях гибридного обучения. Рассматриваются научно-теоретические основы разработки вопросов и учебных заданий при преподавании английского языка, роль учебников и учебных планов в образовательном процессе, а также вопросы описания учебных заданий на основе дидактического подхода и их классификации в соответствии с функциональным назначением. Особое внимание уделяется методическим аспектам создания системы учебных заданий, их эффективного использования и практического внедрения в целях совершенствования содержания обучения английскому языку. Анализируются возможности развития дискурсивной компетенции студентов посредством использования видеоматериалов, модульного обучения и инновационных образовательных технологий в гибридной образовательной среде. На основе интегративно-методического и лингводидактического подходов рассматриваются пути совершенствования процесса преподавания английского языка.

Ключевые слова: гибридное обучение, гибридная образовательная среда, видеоматериалы, английский язык, дискурсивная компетенция, обучение английскому языку, учебные задания, интегративно-методический подход, лингводидактика, дидактические требования, педагогические требования, модульное обучение, инновационные образовательные технологии, методический подход.

A LINGUODIDACTIC METHODOLOGY FOR ENHANCING STUDENTS' ENGLISH DISCOURSE COMPETENCE THROUGH VIDEO MATERIALS IN A HYBRID LEARNING ENVIRONMENT

Muminova Nasiba Solijon qizi
Tashkent University of Applied Sciences, Associate Professor, (PhD).

Abstract.
This article focuses on substantiating the pedagogical and scientific-

ISSN 3060-5059 (Online)

methodological necessity of enhancing students' English discourse competence through video materials in a hybrid learning environment. It examines the theoretical foundations of designing questions and learning tasks in English language teaching, the role of textbooks and curricula in the educational process, and the description and classification of learning tasks according to their didactic functions. Particular attention is given to the methodological aspects of developing a system of learning tasks, ensuring their effective use, and implementing them in practice to improve the content and methodology of English language education. The article analyzes opportunities for developing students' discourse competence through video materials, modular learning, and innovative educational technologies in a hybrid learning environment. Drawing on integrative methodological and linguodidactic approaches, it explores ways to improve the English language teaching process.

Keywords: hybrid learning, hybrid learning environment, video materials, English language, discourse competence, English language teaching, learning tasks, integrative methodological approach, linguodidactics, didactic requirements, pedagogical requirements, modular learning, innovative educational technologies, methodological approach.

Kirish. Jahonda ish beruvchilarni shiddatli o‘zgarishlar va mehnat bozori talablariga moslasha oladigan, kreativ va tanqidiy tafakkurga, boy lug‘at zaxirasiga ega, bilimlarini muammolar yechimi uchun samarali qo‘llay oladigan, Web 4.0 va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalana oladigan malakali kadrlar qiziqtirmoqda. Ingliz tili bo‘yicha oliy ma’lumot olishga ehtiyojning ortishi, ingliz tili ta’limining diversifikatsiyalashuvi, unda ilgari mavjud bo‘lmagan faoliyat turlari va yangi ta’lim shakllarining vujudga kelishi ingliz tili ta’limi paradigmasini o‘zgartirmoqda.

Zamonaviy ingliz tilini o‘qitish metodikasini ushbu yo‘nalishda takomillashtirish, an’anaviy ta’lim vositalarining raqamli texnologiyalarga transformatsiyasi, til ta’limiga kurrikulum yondashuvlarini joriy etish, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli makondagi samarali faoliyatini ta’minlash hamda talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyoda fan, ta’lim, innovatsiya, tadqiqot va tijoratlashtirishni o‘zida mujassamlashtirgan universitetlar, tadbirkor universitet va raqamli universitetga aylanish, «Universitet 4.0» konsepsiyasi haqidagi nazariy tadqiqotlar ko‘lami kengayib, «Jamiyat 5.0» g‘oyasi bilan bog‘liq «Universitet 5.0» modeliga oid takliflar ishlab chiqilmoqda. Ko‘pmadaniyatlilik hamda ko‘ptillilik shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ingliz tilini o‘qitish mazmunida ingliz adabiyoti, madaniyati, san’ati, tarixi va raqamli texnologiyalarni mujassamlashtiruvchi transdissiplinarlik, raqamlashtirilayotgan jamiyat talablariga moslashayotgan ta’lim, zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta’limni raqamlashtirish sharoitida ingliz tilini o‘qitish metodikasidagi raqamli transformatsiyani, raqamli ta’lim shakllari va lingvometodikaning diversifikatsiyasini tavsiflash hamda raqamli texnologiyalarning ta’sirini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3, 17–33-b.].

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga qaratilgan ezgu g‘oya atrofida jipslashadigan Yangi O‘zbekiston bunyodkorlarini kamolga yetkazishdek strategik vazifalar xorijiy tillarni o‘rganish va ingliz tili ta’limi tizimini takomillashtirish bilan uzviy bog‘liqdir. Muloqot vositasi sifatida ijtimoiy mavqeyi va dunyodagi nufuzi ortib borayotgan ingliz tilini o‘rganish masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi ingliz tili ta’limining taraqqiyotini jahondagi yetakchi xorijiy tillar hamda mamlakatimizdagi turli millat vakillarining tili va madaniyatini rivojlantirish bilan uzviy bog‘lamoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

J. J. Jalolovning ta’kidlashicha, ingliz tilini oliy ta’limda o‘qitishning konseptual masalalariga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, uni xorijiy til sifatida o‘qitish metodikasini internet va gadjetlar keng tarqalgan davrda avlodlarning qiziqish hamda ehtiyojlariga, raqamli lingvodidaktik yondashuv talablariga mos ravishda takomillashtirish zarur. Har bir professor-o‘qituvchining ingliz tili fanidan yaratilgan multimedia ilovali metodik qo‘llanmalardan ta’lim sifatini oshirishda o‘rinli va maqsadli foydalanishi ingliz tili dars mashg‘ulotlarining ta’sirchanligini oshiradi. Ayniqsa, diskursiv matn ustida ishlashda, mavjud bilimlarni yanada boyitishda mediatexnologiyalar va multimedia vositalarining o‘rni katta [2, 233-b.].

Kognitiv-diskursiv yondashuv asosida tashkil etilgan ingliz tili dars mashg‘ulotlarida talabalarga ilg‘or ish tajribasiga ega bo‘lgan novator o‘qituvchilarning faoliyati aks etgan videolarni ko‘rsatish, insonparvarlik ruhidagi 2–3 daqiqalik videoroliklarni namoyish etish, ko‘rsatilgan tasvirlar asosida diskursiv matn yaratishni topshiriq sifatida berish ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bugungi kun talabalari nanotexnologiyalar asrida yashamoqda. Shuning uchun an’anaviy insho, bayon va diktant yozdirish usullari talabalar uchun biroz zerikarli tuyulishi mumkin. Natijada ular tezkor va ommabop axborot manbai bo‘lgan internetdan tayyor matnlarni ko‘chirib olishga moyillik bildiradilar.

Biz taklif etayotgan diskursiv videomatnli nazorat turlari talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda internet imkoniyatlaridan samarali foydalanishini ta’minlaydi. Mazkur nazorat turi 2026-yilda tajriba-sinovdan o‘tkazildi va talabalar orasida katta qiziqish uyg‘otdi. Ushbu nazorat turini qo‘llashdan asosiy maqsad talabalarni zamonaviy texnologik vositalar yordamida o‘z kreativ fikrlarini mustaqil ravishda namoyon etishga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish hamda gibrid ta’lim muhitida ingliz tilidan diskursiv kompetensiyani videomatnlar orqali takomillashtirish metodikasini amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

ISSN 3060-5059 (Online)

Videomatnni yozma ishning bir turi sifatida ham baholash mumkin. Uning boshqa yozma ish turlaridan farqi shundaki, diskursiv matn yaratish jarayonida yozma nutq bilan birgalikda og‘zaki nutq ham rivojlanadi. Bunda diskursiv matn muallifi o‘zining keng mushohadaga, teran fikrga va muayyan dunyoqarashga ega ekanini namoyon etish uchun mavzuga har tomonlama mos keladigan lavhalar hamda ularga ohangdosh musiqa vositalaridan foydalanadi.

K. Sh. Muradkasimovaning ta’kidlashicha, videomatn talabaning shaxsiy nutqiy va lingvistik malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. U nutqiy faoliyatni takomillashtirish va nutqiy ko‘nikmalarning har birini shakllantirishga qaratilgan ijodiy ishlarning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Talabalarni zamonaviy texnologik vositalar yordamida o‘z ijodkorligini mustaqil ravishda namoyon etishga o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish hamda gibrid ta’lim muhitida ingliz tilidan diskursiv kompetensiyani videomatnlar orqali takomillashtirish metodikasining maqsadini amalga oshirish uchun o‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

1. Ingliz tili fanida mavzu bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
2. Talabaning dunyoqarashiga mos mavzularni tanlay olish.
3. Diskursiv videomatn hajmini hisobga olish.
4. Mavzuni to‘laqonli yoritish uchun bir emas, balki bir nechta manbaga (ommaviy axborot vositalari, badiiy kitoblar, internet va hokazo) murojaat qilishni o‘rgatish.
5. Mavzuni bugungi kun bilan bog‘lay olish ko‘nikmasini shakllantirish.
6. Diskursiv videomatn yaratish jarayonida mavzu va ovozga mos musiqa hamda lavhalarni tanlay olish malakalarini shakllantirish.
7. Savodxonlik me’yorlariga qat’iy amal qilinishini nazorat qilish.

Diskursiv videomatn yaratish quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Diskursiv matnning qoralama (xomaki) nusxasini tayyorlash.
2. Uning tahrir qilingan yakuniy variantini tayyorlash [14, 5–17-b.].

Diskursiv videomatnni yaratishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi.

MUHOKAMA

N. X. Kushiyeva diskursiv matn qanday yozilishi haqidagi savolga quyidagicha javob beradi. Matn muallif tomonidan o‘qiladi va uning ovozi kompyuter yoki telefon diktofoniga yozib olinadi. Matn mazmuniga mos kuy tanlanadi hamda mavzuga oid videolavhalar tayyorlanadi. «Ulead Video Studio», «Corel Video Studio», «CyberLink PowerDirector», «Movavi Video Suite», «Adobe Premiere Pro» va «Pinnacle Studio» dasturlari yordamida ovoz, matn, rasm, kuy va videolavhalar birlashtirilib, videomatn hosil qilinadi.

Diskursiv videomatnning asosiy matni ustida ishlash jarayonida uning tarkibiy qismlariga alohida e’tibor qaratiladi. Videomatnning kirish qismida mavzu bo‘yicha lo‘nda va aniq fikrlarni yoritish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ushbu qismda mavzuning g‘oyaviy yo‘nalishlari haqida ham ma’lumot berilishi mumkin. Kirish qismi umumiy ish hajmining 15 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi [11, 5–16-b.].

Diskursiv videomatnning asosiy qismi mavzuning mazmuni, g‘oyaviy uyg‘unligi va yo‘nalishlarini, talabalarning dunyoqarashi hamda fikrlash doirasini yaqqol ifodalovchi bo‘lim hisoblanadi. Odatda, ishning asosiy matnida talabaning mavzu yuzasidan mulohazalari va mustaqil fikrlari o‘z aksini topishi kerak. Matnda ifodalangan fikrlarning musiqa va lavhalarga mos hamda monand bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. Matnning intervyu qismi talaba yaratgan diskursiv videomatnning eng yuqori nuqtasi hisoblanadi. Unda talaba kamera qarshisida mavzuning eng dolzarb jihatlari haqida intervyu beradi.

Gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini videomatnlar orqali takomillashtirishda videomatnning asosiy qismi umumiy ish hajmining 70 foizigacha bo‘lgan qismini tashkil etadi. Videomatnning xulosa qismida mavzu yuzasidan umumiy xulosalar ifodalanadi. Mazmunning hozirgi davr bilan bog‘liq jihatlari, asarning tarbiyaviy ahamiyati, timsollarning zamondoshlarimiz uchun ibratli tomonlari haqida fikr yuritiladi. Har bir so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash, shevaga xos so‘zlardan qochish va adabiy til me’yorlariga rioya qilish videomatnning sifatini oshiradi.

N. I. Gezning ta’kidlashicha, videomatn yaratish jarayonida talabalarda quyidagi kompetensiyalar shakllanadi.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi: axborot manbalaridan (internet, televizor, radio, audio va videoyozuvlar, kompyuter, telefon, elektron pochta va boshqalar) foydalana olish; media vositalardan zarur axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, saqlash, uzatish va ularning xavfsizligini ta’minlash; media vositalardan foydalanishda mediamadaniyatga rioya qilish; ma’lumotlar bazasini yaratish, asosiy ma’lumotlarni tanlash va tahlil qilish; kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiyalar: Vatanga sadoqatli, insonlarga mehrli, umuminsoniy hamda milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish; badiiy va san’at asarlarini tushunish hamda ulardan ta’sirlana olish; umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlar (urf-odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an’analar va boshqalar)ni bilish va ularga hurmat bilan munosabatda bo‘lish; o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat va saxiylik ko‘rsatish; boshqalarning dunyoqarashi, milliy va etnik xususiyatlari, diniy e’tiqodi, an’ana va marosimlarini hurmat qilish; xalqning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini avaylab-asrash hamda jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ingliz tili faniga oid kompetensiyalar: lingvistik kompetensiya – talabaning ingliz tili mutaxassislik fanlari bo‘yicha olgan bilimlari, ushbu bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash ko‘nikmasi va nutq hosil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Nutqiy kompetensiya esa matn mazmunini anglash, uni og‘zaki qayta bayon qilish hamda fikrni yozma ravishda izchil ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi [9].

ISSN 3060-5059 (Online)

NATIJA

Talaba videomatnni tayyorlash jarayonida o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda izchil ifodalaydi. Videomatn nazorat turi sifatida qo‘llanilganda quyidagi natijalarga erishish mumkin.

Ingliz tili bo‘yicha ta’limiy natijalar: talabaning yozma va og‘zaki nutqi rivojlanadi; matn mavzusi asosida fikrni bayon etish orqali talaffuz malakasi va lug‘at boyligi oshadi; o‘rgangan grammatik va leksik materiallarini o‘zlashtirib, amaliyotda qo‘llashga harakat qiladi; boshqa fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini dars jarayonida egallagan bilimlari bilan uyg‘unlashtiradi va fanlararo bog‘liqlikni shakllantiradi.

Tarbiyaviy natijalar: talaba mustaqil ishlaydi, uning ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi; zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (kompyuter, internet, kamera) foydalanishni o‘rganib, malakasini oshirib boradi; xorijiy tilda fikrlash qobiliyati rivojlanadi; ingliz xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi, milliy urf-odatlari, buyuk adiblari ijodi, ilm va ma’rifatni e’zozlash tuyg‘usi shakllanadi; ayrim ma’lumot va dalillarga nisbatan shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish malakasi oshadi; o‘zi zarur deb bilgan tilga oid ma’lumotlar yuzasidan fikrlarini ilgari surish, ularni asoslash va dalillar keltirish malakalari rivojlanadi; qo‘shimcha xorijiy badiiy adabiyotlarni o‘qish, mustaqil kuzatish, tasniflash va taqqoslash ko‘nikmalari takomillashadi; tarqatma va didaktik materiallar tayyorlash malakalariga ega bo‘ladi; egallangan ingliz tiliga oid bilim, ko‘nikma va malakalardan o‘quv fanini hamda boshqa fanlarni o‘rganishda, kelgusidagi pedagogik faoliyatda, shuningdek, ijtimoiy hayotda mustaqil va erkin foydalana oladi [2, 112–133-b.].

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot davrida jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda yoshlarning ijodkorligini, talabalarning kreativ g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish zarur.

Amaliy tajribalarimiz shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarimiz bitiruvchilarining 90 foizdan ortig‘i umumiy o‘rta ta’lim maktablariga ishga borib, pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadi. Xalqaro baholash dasturlarining asosiy vazifasi bilim, ko‘nikma va malakalarni baholashdan iborat. Shuning uchun yuqorida tayyorlangan topshiriqlar bilan bir qatorda, matnda bevosita keltirilmagan, ammo mazmunan unga aloqador bo‘lgan qo‘shimcha topshiriqlar ham ishlab chiqiladi.



1-rasm.

INGLIZ TILIDAN DISKURSIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDAGI PEDAGOGIK KEYSLARNING TURLARI

O‘. Xoshimovning ta’kidlashicha, O‘zbekiston Respublikasida ingliz tilini o‘qitish va yoshlarning savodxonlik darajasi har yili 3–4 marta sinovdan o‘tkazilar ekan, bunga o‘ta mas’uliyat bilan tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Buning uchun xalqaro tadqiqotlar talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tajriba-sinovlar o‘tkazish, ularni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali bo‘lajak mutaxassislarda maxsus ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini xalqaro tadqiqotlar talablariga muvofiq tayyorlash va ularning bu boradagi malakalarini oshirish maqsadida «Ingliz tilini o‘qitish metodikasi» fanining amaliy va seminar mashg‘ulotlarida talabalarda xalqaro dasturlar haqida tushunchalar hosil qilish muhim ahamiyatga ega [3, 67–87-b.].

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, gibrid ta’lim muhitida talabalarning ingliz tilidan diskursiv kompetensiyasini videomatnlar orqali takomillashtirishda keys-stadi usuliga murojaat etiladi. Keys-stadi (inglizcha *case* – aniq vaziyat, holat; *study* – o‘rganish) keysda bayon qilingan aniq, real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatni tahlil qilishga asoslangan ta’lim usuli bo‘lib, talabalarni muammoni aniqlash, uni ifodalash hamda maqsadga muvofiq yechimlarini topishga yo‘naltiradi. Didaktik keyslar mazmuni va qamroviga ko‘ra mikrokeys, minikeys va umumiy keyslarga; qo‘yilgan maqsadiga ko‘ra taktik va strategik keyslarga; muammoli vaziyatning real hayotda yuz berganlik darajasiga ko‘ra esa real voqelikka asoslangan va voqelik imitatsiya qilingan keyslarga ajratildi (1-rasmga qarang).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Irisqulov M. T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 256 b. – URL: https://library.turan-edu.uz/kitob/2873/. TIU Kutubxona
2. Jalolov J. J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 432 b. – URL: https://library.ziyonet.uz/book/100464. library.ziyonet.uz
3. Hoshimov O‘. H., Yoqubov I. Ya. Ingliz tili o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Sharq, 2003. – URL: https://lib.vatanuniversity.uz/library/5594a12a-f671-4381-b761-64d0d8344a91. Universitet raqamli kutubxonasi

4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, **2004**. – P. 10. – URL: https://www.cambridge.org/core/books/taskbased-language-teaching/0CA4599235DCF504DE221FF8D21409F0. cambridge.org
5. Rivers W. M. Teaching Foreign-Language Skills. – Chicago: University of Chicago Press, 1968. – 403 p. – URL: https://openlibrary.org/books/OL5618148M/Teaching_foreign-language_skills.
6. Бонк Н. А. Методика преподавания английского языка. – 1997.
7. Методика обучения иностранным языкам: традиции и современность: коллективная монография / под ред. А. А. Миролюбова. – Обнинск: Титул, 2010. – 462, [1] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01004718555. Search RSL
8. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика: учебное пособие. – 3-е изд., стер. – Москва: Академия, 2006. – 333, [1] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002911578. Search RSL
9. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам: лингводидактика и методика: учебное пособие. – 3-е изд., стер. – Москва: Академия, 2006. – 333, [1] с. – URL: https://search.rsl.ru/ru/record/01002911578.
10. Anthony E. M. Approach, Method and Technique // English Language Teaching. – 1963. – Vol. 17, № 2. – P. 63–67. – DOI: https://doi.org/10.1093/elt/XVII.2.63. Scientific Research Publishing
11. Kushiyeva N. X. Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda klasterli yondashuv xususiyatlari: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. – URL: https://api.ziyonet.uz/uploads/books/251467/5e16bf632fc8f.pdf. api.ziyonet.uz
12. Riskulova K. D. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2017. – URL (himoya e’loni): https://oak.uz/index.php/pages/818. oak.uz
13. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – 410 p. – ISBN 978-1-107-67596-4. – DOI: https://doi.org/10.1017/9781009024532. cambridge.org
14. Muradkasimova K. Sh. Chet tillarni baholash kompetensiyasi: amaliyotdagi holat va ehtiyojlar // O‘zbekistonda xorijiy tillar. – 2022. – № 3 (44). – B. 72–85. – DOI: https://doi.org/10.36078/1658738640.
15. Huse H. R. The Psychology of Foreign Language Study. – Chapel Hill: University of North Carolina Press, 1931. – 231 p. – URL: https://books.google.com/books?id=w4VMAAAAIAAJ.
16. « Dunkel H. B. Second-Language Learning. – Boston: Ginn, 1948. – VI, 218 p. – URL: https://ci.nii.ac.jp/ncid/BA34168998
17. Carroll J. B. Language and Thought. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1964. – 118 p. – URL: https://lawcat.berkeley.edu/record/475854.